

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI
INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

TAIROVA MAXFUZA ABDUSATTOROVNA

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAMLAKATSHUNOSLIK
TERMINLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Tairova Maxfuza Abdusattorovna

Ingliz va o‘zbek tillarida mamlakatshunoslik terminlarining chog‘ishtirma tadqiqi
.....5

Tairova Makhfuza Abdusattorovna

Contrastive study of country study terms in English and Uzbek
.....27

Таирова Махфуза Абдусатторовна

Сопоставительное исследование страноведческих терминов в английском и
узбекском языках.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ.....52

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI
INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

TAIROVA MAXFUZA ABDUSATTOROVNA

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAMLAKATSHUNOSLIK
TERMINLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI**

**10. 00. 06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.3.PHD/FIL5130 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namsifl.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bakirov Poyan Uralovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Vositov Valijon Abduvahobovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ikromxonova Feruza Ikromovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "10" sentyabr kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan viloyati, Namangan shahri, Davlatobod tumani, Orzu MFY, Yoshlik ko'chasi 100a-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz.)

Dissertatsiya bilan Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (103 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Namangan viloyati, Namangan shahri, Davlatobod tumani, Orzu MFY, Yoshlik ko'chasi 100a-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "22" avgust kuni tarqatildi.
(2025-yil "21" avgust dagi № 50 — raqamli reyestr bayonnomasi.)



N.T.Dosbayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

I.I.Umrzaqov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

S.A.Misirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika
fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Jahon tilshunosligida inson lisoniy boyligining katta qismini tashkil etuvchi, muayyan sohalarga oid tushunchalarni ifodalovchi va shu soha mutaxassislarining o‘zaro muloqoti uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi terminologik birliklarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyoj XX asr o‘rtalaridan boshlab ortib bormoqda. Xususan, zamonaviy dunyoda, chegaralar tobora oshkora bo‘lib borayotgan bir paytda, boshqa madaniyat va an‘analarni bilish muvaffaqiyatli o‘zaro hamkorlikning kalitiga aylanmoqda. Mamlakatshunoslik sohasidagi tadqiqotlar talabalar va mutaxassislarga turli mamlakatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, bu xalqaro tashkilotlarda, biznes va boshqa sohalarda faoliyat olib borish uchun muhimdir.

Dunyo tilshunosligida terminologik tizimlarni o‘rganish zarurati yuzaga kelmoqda. Zero, fan-texnologiya taraqqiyoti, axborotlarning cheksiz oqimi insoniyat olamini tubdan o‘zgartirishga qodir bo‘layotgan bugungi kunda mamlakatshunoslik terminlari faolligi kuzatilmog‘da. Ingliz va o‘zbek tillarida mamlakatshunoslik terminlarini leksik-semantik xususiyatlarini ochib berish orqali terminlarning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash imkonini bermoqda. Bu, o‘z navbatida, ingliz va o‘zbek tillaridagi mamlakatshunoslikka oid terminlarni qiyoslash sohasiga tegishli leksemalarni tizimlashtirish va tartibga solish kabi masalalarni hal qilishni talab etadi.

O‘zbekistonda xorijiy tillarni o‘rganish va yosh avlodning chet tillarini o‘rganishiga yetarli sharoitlar yaratilganligi ushbu sohada bir qator ilmiy tadqiqotlar bajarilishiga zamin yaratdi. Bu borada prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “...farzandlarimiz tarbiyasi, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan, ularni yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur”¹. Shuningdek, millat tilining, ya’ni ma’naviyat belgisi bo‘lgan nutqiy tilning turli-tuman ifoda vositalaridan foydalanib, uning hali ma’lum bo‘lmagan jihatlarini, o‘ziga xosliklarini ochib berish bilan birgalikda jahon tillari bilan lingvistik chog‘ishtirma tahlili asosida tadqiqot tashkil etish, bu boradagi ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirish zaruriyatini belgilab beradi.

Ushbu dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son, 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-6108-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risi”dagi Farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 34-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda

¹ Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 17.

ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorij tilshunosligida E.Wüster, J.Ayto, Sh.Lewis, W.Fleischer, S.Ziya, E.Benveniste, F.de Saussure, L.I.Bojno, M.T. Cabre, rus tilshunosligida Y.Yefremov, E.N.Sapojnikova, V.P.Danilenko., D.S.Lotte, Sh.Shelov, B.Golovin, G.Aleksandrova, S.Grinev, V.Leychik, T.Kandelaki² va boshqa olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

O‘zbek tilshunosligida terminologiya masalalari bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan: M.A.Usmanov, Q.Musayev, U.Tursunov, H.Dadaboyev, R.Doniyorov, A.Madvaliyev, X.Paluanova, O.Ahmedov, D.Kadirbekova, X.Mirzaahmedova, T.Valiyev, F.Qodirova, D.Mo‘minova, A.Xojiyev, Z.Mirahmedova, B.X.Omonov, N.Atayevalar³ tomonidan tadqiq etilgan.

² E. Würster. Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie (the general introduction to terminology and terminological lexicography lesson). 3rd Edition, Romanistischer Verlag, Bonn, 1991. – 300 p.; Ayto J. A Century of New Words. Oxford: Oxford University Press, 2007. – 250 p.; Sherman L. Princeton. – N. J.: Princeton University Press, 1938. –524 p.; Fleischer W., Barz I. Wortbildung der deutschen Gegenwartssprache. – Berlin/Boston: De Gruyter, 2012. – S. 373.; Sak Ziya, Dictionary of Commercial and Economic Terms Ticari ve Ekonomik Terimler Sözlüğü, 1996. – 416 p.; Benveniste É. *Problemas de lingüística general*, México: Siglo Veintiuno, 1971; new ed., 2 vols., México: Siglo XXI, 1977.; Сосюр Ф. де Заметки по общей лингвистике: Пер. с фр./Общ. ред., вступ ст. и коммент. Н.А. Слюсаревой. – М.: Издательская группа «Прогресс», 2001. – 280 с.; Божно Л.И. Научно-техническая терминология как один из объектов изучения закономерностей развития языка // Филологические науки. 1971. № 5. – С. 103.; Ефремов Е. Основы теории лексического калькирования. – Алматы: КазГУ, 1974. –275 с.; Сапожникова Е.Н. Страноведение: Теория и методика туристского изучения стран: Учеб. Пос. для студ. высш. учеб. заведений /- 2-е изд., испр. – М.: Издательский центр «Академия», 2004. – 240 с.; Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – 157 с.; Лотте Д.С. Очередные задачи технической терминологии (1931) / Д.С. Лотте // Татаринцев В.А. История отечественного терминоведения. Классики терминоведения: Очерк и хрестоматия. – М., 1994. – 408 с.; Шелов С. Термин. Терминологичность. Терминологические определения. Монография. – Санкт-Петербург: Российская государственная библиотека, 2003. –277 с.; Головин Б. Лингвистические учения о терминах. М.: Высшая школа, 1987. 105 с.; Гринев С. Терминоведение. – М.: Академия, 2008. – 303 с.; Cabré M. Teresa Terminology. Theory, methods and applications. John Benjamins Publishing Company Amsterdam/Philadelphia 1999. p. 2, 12, 103, 331.; Лейчик В. Терминоведение: предмет, методы, структура. – М.: ЛКИ, 2007. – 256 с.; Канделаки Т. Семантика и мотивированность терминов. – М.: Наука, 1977. – 167 с.

³ Усманов М.А. Термин «ярлык» и вопросы классификации официальных актов ханств Джучева Улуса//Актовое источниковедение. – М.: 1979. – С. 243 – 244.; Мусаев К.М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. – М.: Наука, 1986. — 163 с.; Турсунов У. Ўзбек тилшунослиги терминологиясининг баъзи масалаларига доир //Труды Узбекского госуниверситета им. Навои. Новая серия. 1955. выпуск 55. – 131 с.; Дадабоев Х.А. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – 186 с.; Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 160 б.; Мадвалиев А. Узбекская химическая терминология и вопросы ее нормализации. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1986. – 190 б.; Палуанова Х.Д. Экологик терминларнинг деривацион-семантик хусусиятлари (ўзбек, қорақалпоқ, инглиз ва рус тиллари мисолида). Филол. фан. докт. (DS) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 88 б.; Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари. Филол. фан. докт. (DS) дисс. – Тошкент, 2016. – 255 б.; Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникация технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари. Филол. фан. бўй. фал. докт... (PhD) автореф... – Тошкент, 2017. – 44 б.; Мирзахмедова Ҳ.В. Форс тили транспорт терминларининг структур қатламлари ва ясалиш усуллари. Филол. фан. бўй. фал. докт... (PhD) автореф... – Тошкент, 2017. – 45 б.; Валиев Т.Қ. Ўзбек тили йўлсозлик терминларининг структур-семантик хусусиятлари ва лексикографик

Terminologiya sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar ko'p bo'lishiga qaramay, mamlakatshunoslik terminlarning chog'ishtirma tadqiqi, leksik-semantik xususiyatlariga oid o'rganilmagan muammolar mavjud. Mamlakatshunoslik terminlari lingvistik tamoyillar asosida ilmiy jihatdan o'rganilishni va bugungi kunda o'z yechimini topishni taqozo qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotning bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Termiz davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida o'rganilayotgan "Tilning leksik-semantik tizimini chog'ishtirma-tipologik o'rganishning dolzarb muammolari: diaxroniya va sinxroniya" mavzusidagi istiqbolli ilmiy-tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan (ITA-12-09-2012).

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida mamlakatshunoslik terminlarining etimologik-derivatsion hamda leksik-semantik xususiyatlarini o'zaro chog'ishtirgan holda ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

tilshunoslikda mamlakatshunoslik terminlarining nazariy tadqiqini o'rganish, til tizimidagi o'rni va maqomini yoritish;

ingliz va o'zbek tillaridagi mamlakatshunoslikka oid terminlarning lingvokulturologik, semantik, etimologik, struktur-derivatsion va paradigmatic jihatlarini aniqlash;

ingliz va o'zbek tillarida sintaktik, abbreviatura, shuningdek kalka natijasida yuzaga kelgan mamlakatshunoslik terminlarni yoritib berish;

ingliz va o'zbek tillarida mamlakatshunoslik terminlarini omonimiya, antonimiya, sinonimiya, variantlilik hamda gipero-giponimiya jihatlarini tadqiq qilish, ularning leksik-semantik xususiyatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyektini ingliz va o'zbek tillaridagi mamlakatshunoslik terminlari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti ingliz va o'zbek tillarida mamlakatshunoslik terminlarining etimologik-derivatsion hamda leksik-semantik xususiyatlari tadqiqidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tasniflash (klassifikatsiya) usuli, lingvistik tavsiflash, tarixiy-etimologik, qiyosiy-tipologik usul, komponent va lingvostatistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillaridagi mamlakatshunoslikka oid terminlarning

талқини. Филол. фан. бўй. фал. докт... (PhD) автореф... – Самарқанд, 2018. – 50 б.; Қодирова Ф.Ш. Инглиз ва ўзбек тилларидаги тасвирий санъат ва дизайнга оид терминларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. Филол. фан. бўй. фал. докт... (PhD) автореф... – Тошкент, 2020. – 54 б.; Мўминова Д.А. Инглиз, рус, ўзбек тилларида нон маҳсулотлари технологияси терминларининг лисоний хусусиятлари. Филол. фан. бўй. фал. докт... (PhD) автореф... – Тошкент, 2020. – 55 б.; Хожиев А. Тилшunoslik терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 168 б.; Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2017. – B. 28-30.; Мирахмедова З. Ўзбек тилининг анатомия терминологияси ва уни тартибга солиш муаммолари. – Тошкент: Фан, 2010. – 125 б.; Omonov B.X. Ingliz va o'zbek tillaridagi geologiyaga oid terminlarning qiyosiy tadqiqi. Fil.fan.falsaf.d-ri dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023. – B. 48.; Атаева Н.С. Инглиз ва ўзбек тилларида банк-молия терминларининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. фан. бўй. фалс. докт... (PhD) автореф... – Тошкент, 2020. – 49 б.

lingvokulturologik, semantik, etimologik, struktur-derivatsion, paradigmatic (sinonimiya, antonimiya, giper-giponimiya, variantlilik, omonimiya, munosabatlari) jihatdan farqli va o'xshash jihatlari ochib berilgan;

ingliz va o'zbek tillaridagi mamlakatshunoslik terminlarining sodda, kompozitsion, abbreviatura va kalka sifatida ifodalanishi, lug'atlarda leksikografik belgilar bilan tasniflanishi, ingliz tilida qo'shma so'zlar, birikma terminlar va affiksatsiya usulida yasalgan terminlar terminologiyaning miqdoriy asosini tashkil etishi dalillangan;

chog'ishtirilayotgan tillardagi mamlakatshunoslikka oid terminlarda gipero-giponimiya munosabatlari turlicha ekani, xususan, ingliz tilida gipero-giponimiya munosabatlari, sohadagi umumiy terminlar ichida 340 ta, o'zbek tilida esa 175 tani tashkil qilishi aniqlangan;

ingliz va o'zbek tillaridagi mamlakatshunoslikka oid aksariyat terminlar morfologik va sintaktik usullar bilan hosil qilinishi, bu usullar yangi tushunchalarni nafaqat aniq shakllantirishga, balki ularni tizimli va tushunarli tarzda shakllantirishga yordam berishi, shu bilan birga, abbreviatura va kalkalash natijasida hosil bo'lgan terminlar ham o'zining ixchamligi, tez ifodalanishi va global munosabatlarda o'z o'rniga ega bo'lib, til va fan sohasida muhim ahamiyat kasb etishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillaridagi mamlakatshunoslik terminlarining qo'llanishi bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

mamlakatshunoslik terminlarining semantik-struktural tahlili asosida ingliz va o'zbek tillari terminologiyasida kechayotgan jarayonlar, ko'plab xalqaro terminlarning ingliz va o'zbek tillarida berilishi tavsiflangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llangan usullarning zamonaviy lingvistik nazariyalarga mosligi, metodologik jihatdan asoslanganligi, nazariy xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining miqdor va sifat jihatdan ta'minlanganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ingliz va o'zbek tillarida mamlakatshunoslik terminlarining yasaliş usullari, leksik-semantik xususiyatlari, chog'ishtirilayotgan tillarda o'xshash va farqli jihatlarning aniqlanganligi, ingliz va o'zbek tillardagi o'z hamda o'zlashma qatlamlarning soha terminologiyasida munosib ahamiyatga ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslangani bilan izohlanadi, shu bilan birga tadqiqot ishining nazariy xulosalari va tahlil usullari mamlakatshunoslikka oid terminologik tizimining ma'no doirasini keng yoritib berishda ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot materiallari va xulosalaridan bir qator lingvistik fanlar, xususan, terminshunoslik, leksikologiya, leksikografiya fanlari bo'yicha ma'ruza kurslari, seminar mashg'ulotlarini ishlab chiqishda hamda olib borishda, darslik, o'quv qo'llanmalari, terminologik lug'atlar tuzishda amaliy manba vazifasini bajarish imkoniyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Ingliz va o'zbek tillarida mamlakatshunoslik terminlarining leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etishdan olingan natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek tillari mamlakatshunoslik terminlarining sodda, kompozitsion, abbreviatura, gibrid, birikma terminlar sifatida ifodalanishi, lug‘atlarda leksikografik belgilar bilan tasniflanishi, terminlarning unifikatsiyalash orqali alohida leksikografik tizimga solish hamda mamlakatshunoslik terminlarning etimologik-derivatsion xususiyatlari, morfologik, sintaktik, abbreviatura hamda kalkalash omillarini tartibga solish yuzasidan olingan ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan I OT-2019-42 Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi “O‘zbek va ingliz tillarining elektron (Inson qiyofasi, fe‘l atvori, tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug‘atini yaratish” nomli amaliy grant loyihasida foydalanilgan. (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 18-aprel № 01/4-1492-son ma’lumotnomasi). Natijalarning joriy qilinishi soha vakillarining nutqini o‘stirishga hamda mamlakatshunoslikka doir lug‘at va elektron ilovasini ishlab chiqishga xizmat qilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi mamlakatshunoslikka oid terminlarning lingvokulturologik, semantik, etimologik, struktur, derivatsion, paradigmatic jihatdan farqli va o‘xshash tomonlari, shuningdek, chog‘ishtirilayotgan tillardagi sohaga oid adabiyotlarda mamlakatshunoslik terminlarining ifodalanishi, ingliz va o‘zbek tillarida etimologik derivatsion xususiyatlari, ularni leksikografik tavsiflash orqali tizimlashtirishga erishish mumkinligi yuzasidagi mulohazalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan PF 201912258, “Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” nomli amaliy grant loyihasida foydalanilgan. (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 18-aprel № 01/4-1491-son ma’lumotnomasi). Natijada, ilmiy izlanuvchilarga, talabalarga chog‘ishtirilayotgan tillardagi mamlakatshunoslikka oid terminlarning leksik, semantik, lingvokulturologik jihatlari tahlili natijasida aniqlangan farqli va o‘xshash tomonlari to‘g‘risida ma’lumot berilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida mamlakatshunoslikka oid terminlarning etimologik-derivatsion xususiyatlari, ularni leksikografik tavsiflash, tizimlashtirishga erishish mumkinligi, shuningdek, ingliz va o‘zbek tillaridagi mamlakatshunoslik terminlari o‘rtasidagi paradigmatic sinonimiya, antonimiya, giper-giponimiya, polisemiya, monosemiya, omonimiya, paronimiya kabi munosabatlar, ingliz va o‘zbek tillari mamlakatshunoslik terminologiyasida lug‘atlar tuzish yuzasidagi tavsiyalardan Termiz davlat universitetida 2021 – 2025-yillarda amalga oshirilgan 617309-EPP-1-2020-1-EPPKA2-CBHE-JP raqamli “*Triggering innovative approaches and entrepreneurial skills for students through creating conditions for graduate’s employability in Central Asia – TRIGGER*” mavzusidagi ilmiy-amaliy loyiha doirasida foydalanilgan. Natijada Xorijiy filologiya fakulteti bitiruvchi talabalari bilan sohaga oid adabiyotlarda hamda mamlakatshunoslikka oid terminlar lug‘atlarini shu sohada faoliyat yurituvchi hamda ta’lim oluvchilarga tatbiq etish yuzasidan ma’lumot berilgan;

ingliz va o‘zbek tillari mamlakatshunoslik terminlarining sodda, kompozitsion, abbreviatura, gibrid, birikma terminlar sifatida ifodalanishi, lug‘atlarda leksikografik belgilar bilan tasniflanishi, terminlarning unifikatsiyalash orqali alohida leksikografik tizimga solish yuzasidan berilgan tavsiya va xulosalardan O‘zbekiston milliy

teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasida “Ta’lim va taraqqiyot”, “O‘smirlar uchun” nomli eshittirishlarni tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradiokanali, DM “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyatining 21-aprel 2025-yil 05-09-504-son ma’lumotnomasi). Natijada mamlakatshunoslikka oid terminlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar nafaqat oliy ta’lim muassasalarida o‘tiladigan fanlar o‘qitilishida, balki keng omma uchun mo‘ljallangan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan adabiyotlar yaratishda ham muhim manba bo‘lib xizmat qilishi ko‘rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 9 ta, 6 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, hajmi 134 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va aprobatsiyasi natijalarining e’lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ingliz va o‘zbek tillarida mamlakatshunoslik terminologiyasining nazariy asoslari”** deb nomlanib, 3ta paragrafga bo‘linadi. Mazkur bobning birinchi fasli *“Terminologiya va terminlarning lingvistik tavsifi, tasnifi, funksiyalari”*ni tadqiq qilishga bag‘ishlangan. Ma’lumki, mamlakatimizdagi joy nomlarining barchasini insonda estetik zavq uyg‘otadigan, milliy mafkura va qadriyatlarimizga mos keladigan, hududning xususiyatlarini o‘zida aks ettiradigan deb bo‘lmaydi. Ayrim nomlarni o‘zgartirish ehtiyoji bor, shuningdek, imlo xatolari mavjudligi, o‘zlashmagan so‘zlar bilan ifodalanganlari tilimizga putur yetkazmoqda. Prezident Sh.Mirziyoyev shu kabi holatlar haqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: “Afsuski, jamoat joylarida, ko‘chalarda, binolar peshtoqida toponimik belgilar, turli lavha va reklamalar ko‘pincha xorijiy tillarda, ma’naviyatimizga yot mazmun va shakllarda aks ettirilmoqda. Bu davlat tili talablariga, milliy madaniyat va qadriyatlarimizga bepisandlikdan, umumiy savodxonlik darajasi esa tushib ketayotganidan dalolat beradi. Shu munosabat bilan, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi bilan birgalikda, ushbu masalalarni keng jamoatchilik ishtirokida jiddiy o‘rganib chiqish va tartibga solish zarur. Chunki ijtimoiy

obyektlarga nom berish – bu shunchaki shaxsiy yoki xususiy ish emas. Bu barchamizning vatanparvarlik va ma’naviy saviyamizni yaqqol ko‘rsatadigan o‘ziga xos mezondir. Buni hech kim hech qachon unutmazligi kerak. Biz xalqimizning taqdiri, ertangi kuni haqida o‘ylar ekanmiz, eng avvalo, millatimizning asl fazilatlarini, go‘zal urf-odatlarimiz, betakror san’atimiz va adabiyotimiz, ona tilimizni ko‘z qorachig‘iday saqlashimiz zarur”⁴. Davlatimiz rahbari tomonidan joy nomlari bo‘yicha ta’kidlab o‘tilgan muammolarni bartaraf qilish uchun toponimlarni tarixiy-lisoniy jihatdan tadqiq qilish va toponimik lug‘atlar yaratish lozim bo‘ladi.

Tadqiqotimiz davomida guvohi bo‘ldikki mamlakatshunoslik terminlari bo‘yicha xorijiy olimlar E.L.Bacha, J.King, O.I.Vasilenko, N.F.Alefirenko, C.Hochharz, K.Loga, L.Veronika, L.A.Akhmad, A.N.Danilova, S.S.Mixaylov, I.Maxova, L.N.Verxovix⁵, larning ilmiy asarlari mamlakatshunoslik, toponimik, madaniy va geografik kontekstga ega.

O‘zbek tilshunosligida mamlakatshunoslik terminlari rivojlanishida P.G‘ulomov va M.Mirakmalovlarning “Toponimika va geografik terminshunoslik”⁶ nomli o‘quv qo‘llanmasi, Q.Hakimovning “Toponimika: Geografiya o‘qitish metodikasi”⁷ nomli darsligi, B.Kilichevning “Onomastika”⁸ nomli o‘quv qo‘llanmasi, R.Y.Xudoyberganov va boshqalar tomonida nashr qilingan “O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati”⁹, asarlari mazkur sohaga bag‘ishlangan¹⁰.

Shuni ta’kidlab o‘tishimiz joizki, biz tadqiqotimizda ingliz va o‘zbek tillarida mamlakatshunoslik terminlari tahlilida “The world book encyclopedia”, “English-

⁴ R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati [Matn]: – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – B. 4.

⁵ Bacha, E. L. Terms of Reference for the Country Studies. World Development, Vol. 14, No. 8. – Great Britain, 1986. – Pp. 909–918.; King, J. Analytical Tools for Toponymy: Their Application to Scottish Hydronymy. PhD thesis. – University of Edinburgh, 2008. – 169 p.; Василенко, О. И. Отфитонимическая семантическая деривация: лингвокогнитивный и культурологический аспекты (на материале русского и английского языков) // Известия Уральского государственного университета. – 2008. – №55. – С. 188–197.; Алекфиренко, Н. Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. – М.: Флинта, Наука, 2010. – 193 с.; Casemir, K. Gewässer-, Flur- und Ortsnamen // In: Der Hochharz – Vom Brocken bis in das nördliche Vorland. Eine landeskundliche Bestandsaufnahme im Raum Bad Harzburg, Wernigerode, Sankt Andreasberg, Braunlage und Elbingerode. Hg. v. Jörg Brückner u.a. (Landschaften in Deutschland 73). – Köln–Weimar–Wien, 2016. – S. 124–129.; Loga, K. Eine onomastische Untersuchung der Namen rezenter und wüst gefallener Siedlungen der ehemaligen Landkreise Sangerhausen und Quedlinburg. Dissertation zur Erlangung des Doktorgrades der Philosophie (Dr. phil.). – 2020. – 564 s.; Лоренц, В. В. Формирование социокультурной компетентности обучающихся при изучении топонимической специфики языковой системы // Scientific Cooperation Center “Interactive plus”. – Чебоксары, 5 окт. 2022. – С. 223–227.; Lutfullina, A. A. Linguoculturological Features of English Toponyms. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – Vol. 21. – June 2023. – Pp. 126–129.; Данилова, А. Н., Сидорова, Л. А. Топонимы как реалии языка и культуры // Вопросы языкознания в когнитивном аспекте: сборник научных статей. – Чебоксары, 2015. – С. 216.; Михайлов, С. С. Лингвострановедение. Метро: Лондон – Берлин – Москва. – Scientific Cooperation Center “Interactive plus”, 2018. – С. 172–174.; Махова, И. К вопросу перевода страноведческих реалий и терминов с английского языка на русский язык // Устойчивое развитие туристского рынка: международная практика и опыт России. – 2018. – С. 56–60.; Верховых Л.Н. Термин лингвокраеведение как обозначение особого направления в краеведении и страноведении. // Воронежское лингвокраеведение. 2021. pp. 98-107.

⁶ G‘ulomov P., Mirakmalov M. Toponimika va geografik terminshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2005. – 75 b.

⁷ Hakimov Q. Toponimika: “Geografiya o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishi talabarlari uchun darslik. – Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2016. — 368 b.

⁸ Kilichev B. Onomastika [Matn]: o‘quv qo‘llanma /– Buxoro: 2023. –180 b.

⁹ Xudoyberganov R.Y. [va boshq.]. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati [Matn]: – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 624 b.

¹⁰ Ахмадалиев Й.И. Топонимика ва географик терминшunoslik. Ўқув қўлланма. – Фарғона: 2018. – Б 18.

uzbek, uzbek-english dictionary”, “Historical dictionaries of international organizations”, “A Dictionary of Diplomacy”, “O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati”, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” kabi ilmiy lug‘atlaridan foydalandik.

Mamlakatshunoslikka oid terminologiya – bu mamlakatshunoslik (yoki “geografiya”, “sotsiologiya”, “xalqaro munosabatlar” kabi sohalarda) bilan bog‘liq bo‘lgan terminlar, tushunchalar va ularning tuzilmasi haqida so‘z yurituvchi fan sohasidir. Mamlakatshunoslik terminologiyasi, umumiy tilshunoslik bilan aloqasi bo‘lishi bilan birga, uning o‘ziga xos xususiyatlari va foydalanish kontekstlari bilan farq qiladi.

Biz quyida mamlakatshunoslikka oid terminlarning lingvistik tavsifini ko‘rib chiqamiz:

1. Morfologik tuzilishi: Mamlakatshunoslik terminlari ko‘pincha affiksatsiya va so‘zlarning qo‘shilishi yoki o‘zgarishi orqali yaratiladi. Masalan, “*demografiya*” (yomg‘irlik, aholining holatini o‘rganadigan ilm) so‘zi grekcha “*demos*” (aholi) va “*graphos*” (yozish) so‘zlaridan kelib chiqqan. Bunday birikmalar, terminlarni tushunish va o‘rganishda ko‘mak beradi.

2. Sintaktik xususiyatlar: Mamlakatshunoslik terminlari ko‘pincha nomlar, sifatlar, va ba‘zan fe‘llar yoki birikmalar shaklida keladi. Terminlar o‘zaro mantiqiy aloqalar, bog‘lanishlar orqali ifodalanadi. Misol uchun, “*geografik hudud*” yoki “*sotsial-iqtisodiy holat*” kabi ikki yoki undan ortiq so‘zlar birgalikda ishlatiladi.

3. Semantik tavsif: Har bir mamlakatshunoslik termini o‘zining aniq ma‘nosi bilan ajralib turadi. Ular odatda ijtimoiy va ilmiy jihatdan aniq tushunchalarni ifodalaydi. Masalan, “*g‘arblik*” termini, g‘arbiy geografik hududda yashovchi kishilarni anglatadi.

Mamlakatshunoslik terminlari ko‘plab tarmoqlarga bo‘linadi. Ular quyidagi tasniflar orqali o‘rganiladi:

1. Geografik terminlar: Bu turdagi terminlar mamlakatning tabiiy resurslarini, hududini, joylashuvini ifodalovchi terminlarni o‘z ichiga oladi.

2. Sotsial-iqtisodiy terminlar: Bu terminlar mamlakatning iqtisodiy tizimi, ijtimoiy tuzilmalari va ularning o‘zaro aloqalarini tushuntiradi.

3. Demografik terminlar: Aholi, uning o‘sishi, tuzilishi va boshqa omillarni ifodalovchi terminlar.

4. Siyosiy va huquqiy terminlar: Mamlakatning siyosiy va huquqiy tizimini ifodalovchi terminlar.

Bobning ikkinchi fasli “*Mamlakatshunoslik terminologiyasi tushunchasi va uning sohaviy ko‘lamlari*” deb nomlanadi. Bu faslda mamlakatshunoslik terminologiyasi, uning o‘rni, ahamiyati va turli sohalardagi qo‘llanilishi chuqur tahlil qilingan. Mamlakatshunoslik terminlarining yaratilishi va qo‘llanilishiga madaniy-tarixiy xususiyatlar sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Har bir tilda o‘ziga xos terminlar mavjud bo‘lib, ularning muqobillari boshqa tillarda bo‘lmasligi mumkin. Chunki til nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning madaniy xususiyatlarini asrab-avaylovchi xazina hamdir. Misol uchun, ingliz tilida ko‘pincha “*the American Dream*” (Amerika orzusi) termini qo‘llanilib, u erkinlik, individualizm va muvaffaqiyatga erishish imkoniyati kabi bir qator madaniy va tarixiy tushunchalarni qamrab oladi. Bu termin

o‘zbek tilida aniq analogiga ega emas, chunki AQSh va O‘zbekiston o‘rtasidagi madaniy kontekstlar sezilarli darajada farq qiladi (qarang 1-rasm).



1-rasm. Mamlakatshunoslik terminlarini tadqiq etish usullari

Mamlakatshunoslik terminlarini tahlil etish nafaqat mamlakat nomining etimologiyasini to‘g‘ri ochib beradi, balki o‘sha nomlarning tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstini ham chuqurroq tushunishga yordam beradi. Mamlakatshunoslik terminlari ko‘pincha o‘sha hududning tarixini, aholisi va ularning dunyoqarashini aks ettiradi. Buning natijasida, toponimlarning etimologiyasi va semantikasi, ayniqsa, tarixiy yodgorliklar yoki qadimiy tildan qoldiq bo‘lgan nomlar orqali, bir mamlakatning taraqqiyoti, ijtimoiy o‘zgarishlari va madaniy o‘tmishiga oid qimmatli ma’lumotlarni olish mumkin bo‘ladi.

Mamlakatshunoslik terminologiyasiga oid tadqiqotlarda keng qo‘llaniladigan madaniy usullardan yana biri toponimik usuldir. Bu usul mamlakatshunoslikka oid nomlarning o‘rganilganlik darajasi tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy hodisa va obyektlar bilan aloqadorligi, takroriyliigi va zichligini maydon birligida aniq ko‘rsatish imkonini beradi. Mamlakatshunoslikka doir hududiy ma’lumotlarni aniqlash turli kartografik manbalardan foydalanishni talab qiladi. Turli davrdagi kartalar yordamida mamlakatlarning rivojlanish bosqichlarini toponimiya ma’lumotlari asosida kuzatish va tahlil qilish mumkin.

Mamlakatlardagi obyektlarning nomlanishiga olib kelgan hududiy, tarixiy va lingvistik, madaniy va ijtimoiy va iqtisodiy sabablarni aniqlash uchun bir nechta asosiy omillarni ko‘rib chiqamiz:

Hududiy omillar: Obyektlarning nomlari ko‘pincha ularning geografik joylashuvi yoki tabiiy xususiyatlariga asoslanadi.

Ingliz tilida daryo, tog‘ yoki o‘lka nomlaridan kelib chiqqan ayrim terminlar quyidagilardan iborat. Masalan, **River**¹¹ (daryo) — Daryo nomidan kelib chiqqan terminlar **Thames** (Buyuk Britaniyada joylashgan Thames daryosi).

O‘zbek tilida daryo, tog‘ yoki o‘lka nomlaridan kelib chiqqan ayrim terminlar quyidagicha bo‘lishi mumkin: **Amudaryo** – Markaziy Osiyo va O‘zbekistonning eng sersuv daryosi. **Sirdaryo** – Markaziy Osiyodagi eng uzun daryo, biroq suv hajmi bo‘yicha Amudaryodan keyingi o‘rinda turadi

Tarixiy omillar: tarixiy voqealar, mashhur shaxslar yoki siyosiy voqealar nomlari. *Amir Temur* – O‘zbekiston tarixidagi eng mashhur davlat arbobi va sarkarda. *U XIV asrda Markaziy Osiyo, Eron, Hindiston va boshqa hududlarda katta*

¹¹ Butayev Sh. English-Uzbek, Uzbek-English Dictionary. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – 502.

imperiya qurdi. Mustaqillik – O‘zbekistonning 1991-yil 31-avgustda Sovet Ittifoqidan mustaqil bo‘lib chiqishi voqeasi.

Lingvistik omillar: mamlakatshunoslik terminlari odatda mahalliy til va lahjalarga, ularning fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, fonetik omillar: talaffuzdagi farqlar – ingliz tilidagi “*parliament*” so‘zi o‘zbek tilida “*parlament*” deb talaffuz qilinadi. Bu yerda ingliz tilidagi [ə] tovushi o‘zbek tilida [a] tovushiga almashgan.

Madaniy omillar: mamlakatshunoslik terminlariga mahalliy urf-odatlar, diniy e‘tiqodlar va folklor ta‘sir ko‘rsatadi. *Promised Land (Vada qilingan yurt) Ibrohim (s.a.v) va uning avlodlariga va‘da qilingan Kan‘on mamlakati (Ibtido 12:7, 13:15 va hokazo.) Beshik to‘y bola tug‘ilgandan keyin uni beshikka ilk bor yotqizish marosimi.*

“*Ingliz va o‘zbek tillarida mamlakatshunoslik terminlari va ularning lingvistik aspektlari: tushunchalari, yo‘nalishlari, o‘rganilishi*” deb nomlangan uchinchi fasl ingliz va o‘zbek tillaridagi mamlakatshunoslikka oid terminlarning lingvistik nuqtai nazardan o‘rganish, turli tillardagi so‘zlarning semantikasi, morfologiyasi va sintaksisiga bag‘ishlanadi. Mamlakatshunoslik terminlari tarkibi, yasalishi va grammatik tuzilishiga ko‘ra lingvistik jihatdan guruhlarga ajratiladi. Bular sodda va murakkab toponimlardir:

Yagona so‘zli terminlar: masalan, ingliz tilidagi *Nation, State, Country* yagona so‘zli terminlar, o‘zbek tiliga *davlat, mamlakat, millat* kabi bo‘ladi. Bu terminlar faqat bir so‘zdan iborat bo‘lib, biror bir mamlakatshunoslik tushunchasini bildiradi.

Ingliz tilida birlashtirish yordamida yasalgan *Nation-state (nation + state)* mamlakatshunoslik terminlar, o‘zbek tiliga *millat-davlat (millat + davlat)* kabi qo‘llanadi. Bu kabi terminlar ikki yoki undan ortiq so‘zning birikmasidan hosil bo‘ladi.

Ingliz va o‘zbek tillarida mamlakatshunoslik terminlari yasalishiga qarab ham ajratilishi mumkin: Morfologik yasash: inglizcha *Nationalism (nation + ism), Democracy (demos + cracy)*. O‘zbekcha *Millatchilik (millat + chilik), demokratiya (demos + kratiya)*. Bu yerda so‘zlar turli affikslar (suffiks, prefiks) yordamida yangi tushunchalarni ifodalash uchun yaratiladi. Grammatik jihatdan ingliz va o‘zbek tillaridagi mamlakat terminlari quyidagi yo‘nalishlarga ko‘ra tasniflanadi. Masalan, ingliz tilidagi *nationalism, democracy* kabi nomlar sifatida ishlatiladigan terminlar, o‘zbek tilida *millatchilik va demokratiya* kabi terminlar orqali qo‘llanadi.

Bu turdagi terminlar odatda mustaqil nom sifatida ishlatiladi va ma‘lum bir siyosiy yoki ijtimoiy tizimni ifodalaydi. Ingliz tilida *Social welfare system, Human rights law* kabi qo‘shma yoki ko‘p tarkibli terminlar, o‘zbek tilida *ijtimoiy ta‘minot tizimi, inson huquqlari qonuni* kabi qo‘llanadi. Bu yerda bir nechta so‘z birikmalari orqali aniq tushunchalar ifodalanadi va ularning grammatik tuzilishi odatda jumlar yoki frazalarga yaqin bo‘ladi. Har bir til o‘zining tarixiy va madaniy xususiyatlariga mos ravishda mamlakatshunoslik terminlarini shakllantiradi. Masalan: *Globalization, sovereignty*¹². O‘zbek tilida *Globalizatsiya, suverenitet*. Bu so‘zlar boshqa tillardan olingan yoki xalqaro terminlar bo‘lishi mumkin.

¹² Butayev Sh. English-uzbek, uzbek-english dictionary. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – B. 431, 235.

Ingliz va o‘zbek tillarida mamlakatshunoslik terminlari o‘rtasida turli xil tarkibiy, yasalish, va grammatik tuzilish jihatidan farqlar mavjud. Bu farqlar har bir tilning o‘ziga xos til tizimiga, madaniyatiga, va tarixiga bog‘liq holda rivojlanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ingliz va o‘zbek tillarida mamlakatshunoslik terminlarining etimologik-derivatsion xususiyatlari”** deb nomlangan. Birinchi fasl *“Ingliz va o‘zbek tillarida mamlakatshunoslikka oid terminlarning etimologik tahlili”* deb atalib mazkur qismda mamlakatshunoslik terminlarini etimologik tahlil qilishga harakat qildik. Mamlakatshunoslik terminlari va ularning etimologiyasi, tarixiy rivojlanishi tilshunoslikda muhim mavzu hisoblanadi. Ingliz tilida mamlakatshunoslikka oid ko‘plab terminlar tarixiy va madaniy jarayonlarga bog‘liq holda shakllangan. Ingliz tilidagi *“geography”* so‘zi, yunoncha *“geographia”* so‘zidan kelib chiqqan, bu *“geo”* (yer) va *“grapho”* (yozish) so‘zlaridan tashkil topgan. Ya’ni, *“geography”* so‘zi *“yerni tasvirlash”* yoki *“yerni tasvirlash san’ati”* ma’nosini anglatadi.

Shuningdek, ingliz tilida *“cartography”* (kartografiya) termini ham yunoncha *“kartos”* (xarita) va *“grapho”* (yozish) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, bu so‘zning etimologiyasi ham hududni yoki joyni tasvirlashni ifodalaydi.

O‘zbek tilidagi ba’zi mamlakatshunoslik terminlarining etimologiyasi:

Etnografiya-yunoncha *“ethnos”* (millat, xalq) va *“grapho”* (yozish) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, xalqning madaniyati, urf-odatlar, tili va kundalik hayoti haqida yozishni anglatadi. O‘zbekistonda etnografik tadqiqotlar ko‘plab milliy o‘rganishlarda muhim ahamiyatga ega. *Valyuta* (chet el pul birligi); bir davlatning boshqa davlat bilan savdo va moliyaviy masalalarda ishlatiladigan pul birligi. Bu so‘zning etimologiyasi italyanча *“valuta”*, lotinча *“valera”* (qiymatli bo‘lmoq fe’lidan kelib chiqqan) mazkur so‘z rus tili orqali o‘zbek tiliga o‘zlashgan¹³. Mamlakatshunoslik terminologiyasining etimologiyasida ingliz tilidagi terminlarda yunon va lotin tillarining kelib chiqishi tez-tez uchraydi. O‘zbek tilida mamlakatshunoslik terminlari ko‘pincha rus yoki arab tillaridan kirgan so‘zlardan iborat, ammo ba’zilarining etimologiyasi aniq o‘zbek tilidan kelib chiqqan. Bu terminlar o‘zbek va ingliz tillarida turlicha shakllangan bo‘lsa-da, ayrim xususiyatlarga ega.

Tadqiqotimizning navbatdagi fasli *“Ingliz tilidagi mamlakatshunoslikka oid o‘z va o‘zlashma qatlam terminlar”* deb nomlangan. Ingliz tili mamlakatshunoslik terminlarida *“o‘z qatlam”* tushunchasi tilshunoslikda muayyan tilga xos bo‘lgan va boshqa tillardan o‘zlashmagan so‘zlar hamda iboralarni anglatadi. *Masalan: King, Queen, Land, Freedom*. Boshqa tillardan o‘zlashtirilgan, ammo asl imlosi va talaffuzini saqlab qolgan terminlar hosila terminlar deb yuritiladi. *Fiyord (norv. fjord), Geyzer (isl. geysir), Savanna (isp. sabana), Parlament (ingl. parliament), Prezident (ingl. president), Byuro (frans. bureau), Festival (frans. festival)*. O‘zlashma so‘zlar ko‘pincha ingliz tilida termini bo‘lmagan texnologik yoki madaniy g‘oyalarni ifodalaydi.

Qadimgi ingliz davridayoq ko‘plab kelt o‘zlashma qatlami

¹³ Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5-жилд. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2020. – Б. 608.

mamlakatshunoslikka oid joy nomlarini tasvirlash uchun ishlatilgan. Masalan, *Kumberlend* – “kimriylar yoki britaniyaliklar mamlakati”. Bu qatlam, asosan, xristian dinining tarqalishi bilan bog‘liq bo‘lib, lotin tilidan kelib chiqqan terminlar, diniy tushunchalar, ibodatlar va marosimlar orqali o‘zlashgan. Misol uchun, “*altar*” (ibodat o‘tkaziladigan marosimlar joyi), “*evangelist*” (xushxabar tarqatuvchi), “*sacrament*” (muqaddas marosim) kabi so‘zlar lotin tilidan o‘zlashgan va xristianlikda keng qo‘llaniladi.

Ingliz tiliga 1250-yildan keyin fransuz tilidan asosan madaniy terminlar o‘zlashtirildi. Masalan:

Moda sohasi: *moda (fashion), ko‘ylak (dress), palto (coat)*.

Maishiy soha: *parda (curtain), sochiq (towel), adyol (blanket)*.

Ijtimoiy soha: *dam olish (leisure), raqs (dance), musiqa (music)*.

Adabiy soha: *shoir (poet), nasr (prose), roman (romance)*.

Zamonaviy ingliz tilida so‘z boyligining kengayishi so‘z yasash jarayonlari va o‘zlashtirish orqali taraqqiy etdi. Masalan,

lotin tilidan: *mukammal (perfect), mantiq (logic)*;

fransuz tilidan: *nafis (elegant), qaror (decision)*;

yunon tilidan: *ilohiyot (theology), trilogiya (trilogy)*;

italyan tilidan: *opera (opera), balkon (balcony)*;

ispan va portugal tillaridan: *alligator (alligator)*.

Ushbu bobning keyingi fasli “*O‘zbek tilidagi mamlakatshunoslikka oid o‘z va o‘zlashma qatlam terminlar*”ga bag‘ishlangan.

Mamlakatshunoslik terminlarining o‘zbek tilidagi o‘z qatlami deganda, o‘zbek xalqining tarixi, madaniyati, urf-odatlari, turmush tarzi va boshqa xususiyatlarini aks ettiruvchi so‘z va iboralar tushuniladi. Bu qatlam o‘zbek tilining o‘ziga xosligi va boyligini ko‘rsatadi. Mamlakatshunoslik terminlarining o‘z qatlamiga quyidagi misollarni keltirish mumkin: Joy nomlari: *Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Farg‘ona, Andijon, Namangan* va boshqalar.

Etnonimlar: *o‘zbeklar, qozoqlar, qirg‘izlar, tojiklar, ruslar, tatarlar* va boshqalar.

Urf-odatlar va marosimlar: *Navro‘z, Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, nikoh to‘yi, sunnat to‘yi* va boshqalar.

Milliy taomlar: *osh, manti, somsa, shashlik, norin, lag‘mon* va boshqalar.

Milliy kiyimlar: *chopon, do‘ppi, lozim, ko‘ylak, atlas, adras* va boshqalar.

Milliy cholg‘u asboblari: *dutor, tanbur, ud, rubob, chang, nay* va boshqalar.

Milliy hunarmandchilik: *kashtachilik, kulolchilik, zardo‘zlik, kandakorlik, gilamdo‘zlik* va boshqalar.

Tarixiy shaxslar: *Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ulug‘bek* va boshqalar.

Tarixiy obidalar: *Registon, Shohi Zinda, Bibixonim masjidi, Minorai Kalon* va boshqalar.

O‘zlashma terminlar o‘zbek tilining lug‘at tarkibini boyitishga, uning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Ular fanning, texnikaning, madaniyatning rivojlanishi bilan bog‘liq yangi tushunchalarni ifodalash uchun zarur. Masalan: Geografiya: *materik, okean, yarim orol, arxipelag, voha, cho‘l, dasht, tog‘*

tizmasi, platov, kanyon, sharshara, vulqon, ziyoratgoh.

Tarix: *imperiya, koloniya, inqilob, urush, sulh, bitim, diplomatiya, elchixonasi.*

Madaniyat: *an'ana, urf-odat, bayram, festival, oshxona, milliy kiyim, san'at, adabiyot, musiqa, teatr, kino.*

Siyosat: *prezident, parlament, hukumat, konstitutsiya, qonun, sud, saylov, demokratiya, totalitarizm.* O'zbek tilidagi mamlakatshunoslikka oid terminlarning o'zlashma qatlamini asosan rus, arab hamda fors tojik tilidan o'zlashgan terminlar tashkil etadi.

“Ingliz va o'zbek tillaridagi mamlakatshunoslikka oid terminlarning *derivatsion xususiyatlari*” deb nomlangan faslda chog'ishtirilayotgan tillarning morfologik, sintaktik, abbreviatura va kalka natijasida hosil bo'lgan mamlakatshunoslik terminlari yuzasidan so'z borgan. Derivatsiya va so'z yasalishi tushunchalari ko'pincha sinonim sifatida ishlatiladi biroq, ular o'rtasida farq bor. So'z yasalishi yangi so'z yasash jarayoni bo'lsa, derivatsiya mavjud so'zlarga qo'shimchalar qo'shish orqali yangi so'z yasashdir. Ingliz va o'zbek tillaridagi mamlakatshunoslik terminlarining derivatsiyasi va derivatologiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ingliz tilida affiksatsiya usuli keng tarqalgan bo'lsa, o'zbek tilida kompozitsiya usuli ko'proq qo'llaniladi. Masalan, ingliz tilidagi *linguist* termini, o'zbek tilida *tilshunos* deb qabul qilingan bo'lsa, *country study* termini *madaniyatshunoslik* bundan tashqari, *geographer* termini o'zbek tiliga *geograf* kabi bir qancha misollarni uchratish mumkin. Mamlakatshunoslik terminlarining yaratilishida terminlar bir yoki bir nechta qismlarining qo'shilishi orqali hosil qilinadi. Masalan, *Geopolitics* (*geo-* + *politics*) – “*geo*” so'zi yer yuzasi yoki geografiyani, “*politics*” esa siyosatni anglatadi.

O'zbek tilida mamlakatshunoslik terminlarining derivatsiyasi quyidagicha amalga oshiriladi. Derivatsiya jarayoni ikki asosiy turga bo'linadi:

Morfo-derivatsiya: Affiksatsiya — so'zga qo'shimchalar (affikslar) qo'shish orqali yangi so'zlar hosil qilish. Masalan: “davlat” so'ziga “-lik” qo'shimchasini qo'shib “davlatlilik” so'zi hosil qilinadi.

Sintaktik derivatsiya: So'z birikmalari — asosida termin yasash: Bunda ikki yoki undan ortiq so'zning birikishi natijasida yangi termin hosil bo'ladi. Masalan, “Markaziy Osiyo”, “Yaqin Sharq”, “ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish”, “demografik vaziyat”. Ingliz tilida misollar: “*melting pot*” termini Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh) jamiyatining turli millat va madaniyat vakillarining aralashib, yagona madaniyat hosil qilish jarayonini ifodalaydi. Bu yerda “*melting*” so'zi ko'chma ma'noda, “*pot*” esa “*qozon*” ma'nosida qo'llangan. O'zbek tilida esa *O'rta Osiyo* (*Central Asia*) *O'rta* (*o'rtacha, markaziy*) + *Osiyo* (*Osiyo qit'asi*).

Tadqiqot ishimizda mamlakatshunoslikka oid abbreviaturalarni ham tahlilga tortganmiz. Abbreviaturalar – bu so'zlarning qisqartirilgan shakllari bo'lib, ular ko'pincha bir nechta so'z yoki iboraning bosh harflaridan yoki bo'g'inlaridan tashkil topadi. Mamlakatshunoslikda ham abbreviaturalar muhim rol o'ynaydi, chunki ular ko'pincha davlatlarning, shaharlarning yoki tashkilotlarning nomlarini qisqartirishda ishlatiladi. Masalan, *AQSH* (Amerika Qo'shma Shtatlari), *O'zR* (O'zbekiston Respublikasi) kabi abbreviaturalar keng tarqalgan.

O'zbek tilidagi mamlakatshunoslik terminlarida uchraydigan eng keng

tarqalgan abbreviaturalarga misollar keltiramiz: *BMT* – Birlashgan Millatlar Tashkiloti, *MDH* – Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, *NATO* – Shimoliy Atlantika Tashkiloti, *EEU* – Yevro-Osiyo Ittifoqi.

Dissertatsiyamizda ingliz va o'zbek tillaridagi kalka natijasida yuzaga kelgan mamlakatshunoslikka oid terminlarni ham tahlil qildik. Kalka – bu bir tilning leksik birliklarini boshqa tilga so'zma-so'z tarjima qilish yo'lida shakllangan yangi termin bo'lib, u ma'lum ilmiy yoki ijtimoiy konseptlarni ifodalashda qo'llaniladi. Ingliz tilida ham, ayniqsa, mamlakatshunoslik va diplomatiya sohalarida bunday terminlar tez-tez uchraydi. Masalan: "*United States of America*" o'zbek tilida "*Amerika Qo'shma Shtatlari*" ushbu kalka ingliz tilidagi iboraning so'zma-so'z tarjimasi bo'lib, o'zbek tilida rasmiy nom sifatida ishlatiladi. Inglizcha: "*Prime Minister*" o'zbekcha kalkasi "*Bosh vazir*" so'zma-so'z tarjima bo'lib, o'zbek siyosiy terminologiyasida keng qo'llaniladi. Toponimik kalkalar: Inglizcha: "*New York*" o'zbekcha kalka: "*Yangi York*" bu toponimik termin bo'lib, o'zbek tilida ham keng qo'llaniladi. "*Golden Gate*" o'zbekcha kalka: "*Oltin darvoza*" mazkur termin ham so'zma-so'z tarjima bo'lib, geografik obyekt nomini ifodalaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Ingliz va o'zbek tillarida mamlakatshunoslik terminlarining leksik-semantik xususiyatlari**" deb nomlanadi. "*Ingliz va o'zbek tillaridagi mamlakatshunoslikka oid terminologik birliklarning lug'aviy va semantik tahlili: tematik guruhlari*" deb nomlangan birinchi faslida mamlakatshunoslik terminlarining ma'nosi terminologik birliklarni leksik-semantik tahlili, omonimiya, antonimiya, sinonimiya va giper-giperonimiya kabi paradigmatic ma'nolari xususida so'z boradi.

Tilshunoslik sohasidagi mamlakatshunoslik terminlarining ma'nosi terminologik birliklarni leksik-semantik tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tahlil terminologik birliklarning umumiste'moldagi so'zlar doirasiga kirishini va aksincha, umumiste'moldagi so'zlarning terminologik tizimga integratsiyalashuvini ifodalaydi. Shuning uchun umumiy leksik birliklar va terminlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun tahlil qilinayotgan leksik qatlamning chegaralarini aniqlash kerak. Terminologik birliklarning semantik tahlili ularning ma'nolari, o'zaro munosabatlari va qo'llanilishini o'rganishni o'z ichiga oladi. Quyida ayrim mamlakatshunoslikka oid terminlarning semantik ma'nolarini keltirib o'tamiz.

Ingliz tilida: "*Commonwealth*" – bu termin Britaniya imperiyasining sobiq koloniyalari va boshqa a'zolaridan iborat siyosiy uyushmani anglatadi. Ammo, bu terminning boshqa ma'nolari ham mavjud, masalan, "*umumiy farovonlik*" yoki "*jamoatchilik*". "*The West*" – termini G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarini anglatadi. Ammo, bu terminning ma'nosi va qo'llanilishi tarixiy va madaniy kontekstga qarab o'zgaradi. O'zbek tilida: "*Mahalla*" – bu termin O'zbekistondagi mahalliy jamoani anglatadi. "*Bozor*" – bu termin O'zbekistondagi ochiq havoda savdo qilish joyini anglatadi

Ba'zi inglizcha mamlakatshunoslik terminlari so'zning asosiy ma'nosiga qo'shimcha ravishda boshqa sohalarida ham qo'llaniladi. Ingliz tilining mamlakatshunoslik terminologik sistemasidagi terminlarning umumiste'mol so'zlari bilan omonimlikni hosil qilishini misollar orqali kuzatamiz.

Capital (shahar) – Mamlakat yoki davlat hukumatining joylashgan shahri (masalan,

London Britaniyaning poytaxti). **Capital** (kapital) — Moliya resurslari, iqtisodiy faollik uchun kerak boʻlgan mablagʻ (masalan, investitsiya qilish uchun kapital). **Border**¹⁴ (chegara) — Mamlakatlar oʻrtasidagi chegara, hududiy chegarani belgilovchi chiziq. Ikki mamlakat yoki hududni ajratib turuvchi chegara. **Border** (chegara yoki qirra) — Biror narsaning chetiga yoki chegarasiga yaqin joy (masalan, “qishloqning chekkasi”). Ikki mamlakat yoki hududni ajratib turuvchi chegara.

Mamlakatshunoslik terminlarining oʻzbek tilidagi omonimiyaga oid misollarni tahlil qilamiz: baʼzi terminlar kundalik tilda ham qoʻllanilib, boshqa maʼnolarda ishlatiladi. Masalan: **Xalq** (aholi) — Maʼlum bir hududda yashovchi, biror bir til, madaniyat yoki urf-odatga ega boʻlgan odamlar. Xalq (xalqaro) — Xalqaro diplomatiya va siyosatda “xalq” soʻzi “millat” yoki “davlat” maʼnosida ham ishlatilishi mumkin. **Hudud** (geografik joy) — Biror bir geografik maydon yoki mintaqa (masalan, davlat hududi). Hudud (siyosiy yoki iqtisodiy) — Maʼlum bir mamlakatning siyosiy yoki iqtisodiy taʼsir doirasi (masalan, “hukumatning iqtisodiy hududi”).

Ingliz va oʻzbek tillarida mamlakatshunoslikka oid terminlarning antonim guruhi: Geosiyosiy terminlar koʻpincha mamlakatning global holati, ittifoqlari yoki nizolarini tasvirlash uchun ishlatiladi. Masalan: **Peace**¹⁵ vs. **War, Tinchlik — Urush** — Tinchlik uygʻunlik holatini yoki toʻqnashuvning yoʻqligini anglatadi. Urush esa koʻpincha xalqlar yoki guruhlar oʻrtasidagi keng koʻlamli toʻqnashuvni anglatadi. **Democracy vs. Autocracy** — Demokratiya — bu odamlar qaror qabul qilish huquqiga ega boʻlgan siyosiy tizim. Avtokratiya esa bir shaxs yoki kichik guruh mutlaq hokimiyatga ega boʻlgan tizimni anglatadi. **Iqtisodiy oʻsish — Iqtisodiy inqiroz.** Iqtisodiy oʻsish — iqtisodiy rivojlanish va yaxshilanish. inqiroz esa iqtisodiyotning pasayishi yoki tanazzulini bildiradi. **Markazlashgan hukumat — Desentralizatsiya** — Markazlashgan hukumat — barcha siyosiy va iqtisodiy qarorlar markaziy organlar tomonidan qabul qilinadi. Desentralizatsiya esa hokimiyatning mahalliy darajalariga taqsimlanishini anglatadi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, terminologik sinonimiya ham terminologik tizimning dastlabki davriga oʻtishi, yaʼni terminlarning tabiiy tanlanish bosqichi bilan izohlanadi. Til taraqqiyoti natijasida lugʻat tarkibiga kirgan eng ommabop, odatdagi terminlargina oʻz mavqeyini yoʻqotmaydi. Masalan: **Country and State**¹⁶ — **Country** Nation, State, Land, Republic, Territory, Sovereign state, **Republic** Democracy, Republic state, Federal state, Self-governed state, **Nation** Country, People, Land, Sovereign state, Homeland.

Oʻzbek tilida mamlakatshunoslikka oid terminlarning sinonim guruhi:

- 1) **Mamlakatshunoslik:** *geografiya, millatshunoslik, davlatshunoslik;*
- 2) **Geografiya:** *yershunoslik, tabiatshunoslik;*
- 3) **Mamlakat:** *davlat, yurt, vatan, oʻlka;*
- 4) **Madaniyat:** *ijtimoiy hayot, maʼnaviyat, tarixiy meros;*

¹⁴ The World book Encyclopedia. Volume 2 (B). — Chicago; London; Sydney; Toronto: World book, 1988. — P. 499.

¹⁵ The World Book Encyclopedia. Volume 15 (S). — Chicago; London; Sydney; Toronto: World Book, 1948. — P. 206.

¹⁶ The World book Encyclopedia. Volume 4 (CI-Cz). — Chicago: World book, 1968. — P. 1097.

5) **Siyosat:** *davlat boshqaruvi, siyosiy tizim, hukumat;*

6) **Tarix:** *o'tgan davr, o'tmish, vaqt o'tkazish;*

7) **Millat:** *xalq, etnik guruh, aholi;*

8) **Aholi:** *xalq, tabiiy resurslar egasi, aholi tarkibi;*

9) **Region:** *hudud, viloyat, o'lka;*

10) **Geografik joylashuv:** *makon, tabiiy joylashuv, topografik o'rni.*

Bizning fikrimizcha, ingliz tilida mamlakatshunoslik sohasiga oid gipero va giponimlar (hypernyms and hyponyms) o'rganish, ijtimoiy tuzumlar va madaniyatlar o'rtasidagi munosabatlarni tushunishga yordam beradi. Gipero-giponimiya munosabatlari - bu tilshunoslikda so'zlar o'rtasidagi turli darajadagi umumiylik va maxsuslikni ifodalovchi munosabatlar tizimidir. Quyida mamlakatshunoslikka oid gipero-giponimiyalarga misollar keltirilgan.

Gipero- (hypernyms) va giponim- (hyponyms) misollar:

1. Culture (gipero) → Subculture (giponim)

1) **Culture** (madaniyat) – keng tushuncha, ijtimoiy guruhlar, an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar va san'at shakllarini o'z ichiga oladi.

2) **Subculture** (submadaniyat) – keng madaniyat tarkibida joylashgan, o'ziga xos qadriyatlar va amallarni o'z ichiga olgan kichikroq guruh yoki madaniy tizim.

2. Society (gipero) → Social group (giponim)

1) **Society** (jamiyat) – odamlarning umumiy ijtimoiy tizimi va tuzilmasi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqalar va tashkilotlar.

2) **Social group** (ijtimoiy guruh) – jamiyatning kichikroq bir qismi, o'zaro ijtimoiy aloqalar va o'xshashliklar asosida birlashgan shaxslar guruhidir.

Bunday munosabatlar terminologiyani aniqligini ta'minlash, tushunchalarni iyerarxik tuzilishga solish va ularni izchil tasniflashga yordam beradi.

O'zbek tilidagi mamlakatshunoslik (geografiya, davlatshunoslik, madaniyatshunoslik) kabi sohalarda gipero-giponimlik munosabatlari quyidagicha ko'rinadi:

I. Mamlakatshunoslikda gipero-giponimlarning o'rni

1. Giperonimlar:

1) **Mamlakat** – umumiy tushuncha bo'lib, turli xil aniq davlatlar, hududlar, joylarni o'z ichiga oladi.

2) **Xalq** – turli xalq yoki etnik guruhlarini umumlashtiruvchi termin.

3) **Tabiat** – mamlakatning tabiiy sharoitini ifodalovchi keng tushuncha, unda geografik jihatlar (tog'lar, daryolar, o'rmonlar) o'rganiladi.

2. Giponimlar:

1) **O'zbekiston** – aniq bir mamlakat, giperonim bo'lgan "mamlakat" tushunchasining giponimi.

2) **O'zbeklar** – aniq xalq, "xalq" giperonimining giponimi.

3) **Amudaryo, Farg'ona vodiysi, Qizilqum** – tabiiy obyektlar va geografik hududlar, "tabiat" giperonimining giponimlari.

II. Gipero-giponimlarning semantik xususiyatlari

Giperonimlar kengroq, umumiy ma'no bilan ta'riflanadi va ularga mos keluvchi giponimlar turli xususiyatlarga ega bo'ladi.

Gipero-giponimiya va o‘zbek tilidagi terminologiya o‘zbek tilida mamlakatshunoslikka oid gipero-giponimiya munosabatlari turli sohalarda ko‘rinadi, masalan:

Mamlakat → O‘zbekiston, Qozog‘iston, Rossiya.

Madaniyat → Musulmon madaniyati, Yevropa madaniyati, Sharq madaniyati.

Geografiya → O‘rmon, Sahro, Baliq havzasi.

Xulosa qilib aytganda, giperonimiya va giponimiya tahlili mamlakatshunoslik terminlarini tushunish va tizimlashtirishda tizimli yondashuvga ko‘mak beradi.

Ikkinchi fasl *“Mamlakatshunoslik terminlarining variantlilik hodisasi”* deb nomlanib unda mamlakatshunoslikka oid terminlarning ma‘noviy xususiyatlari misollar orqali ochib berilgan. Variantlilik bu bir xil ma‘no yoki tushunchani ifodalovchi ikki yoki undan ortiq til birliklarining mavjudligi. Mamlakatshunoslik terminologiyasida bu hodisa, odatda, ingliz va o‘zbek tillarida chet davlatlar tushunchalari, joy nomlari, xalqlar nomlari va shu kabilarning bir necha shaklda qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi. Ingliz tilidagi mamlakatshunoslik terminlarining variantlilik hodisasi ko‘p jihatdan madaniy, siyosiy va tarixiy kontekstga bog‘liq. BrE va AmE o‘rtasidagi farqlar nafaqat leksik darajada, balki semantik va pragmatik jihatdan ham sezilarli. Tarjima, madaniyatlararo muloqot va til o‘rganish jarayonida ushbu farqlarni hisobga olish zarur. Mamlakatshunoslik terminlaridagi variantlilik, bir tomondan, ba‘zi chalkashliklarni keltirib chiqarsa, ikkinchi tomondan, tilning boyligi va moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Bu madaniy va tarixiy kontekstni tushunishda ham muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotchilar va talabalar uchun ushbu variantlarni bilish ingliz tilidagi mamlakatshunoslik materiallarini tushunish va tahlil qilish uchun muhim. Masalan, kvartira termini Britaniya inglizchasida *Flat* bo‘lsa, Amerika inglizchada esa *Apartment* tarzida qo‘llaniladi. Mazkur termin umumiy turar-joy binosidagi xona degan ma‘noni bildiradi.

O‘zbek tilidagi *“Osh”* (yovg‘on sho‘rva, xo‘rda, ovqat; o‘zbek palovi) ingliz tilida *“osh”* deb transliteratsiya qilinishi yoki *“Uzbek pilaf”* (o‘zbek palovi) deb tarjima qilinadi. Ikkala variant ham to‘g‘ri, ammo ularning qo‘llanilishi kontekstga bog‘liq. Ilmiy matnlarda ko‘pincha transliteratsiya qilingan shakli afzal ko‘riladi, kengroq auditoriya uchun esa tarjima qilingan shakli tushunarli bo‘ladi.

“White House” (Oq uy — AQSh prezidenti qarorgohi) ingliz tilidan o‘zbek tiliga *“Oq uy”* deb tarjima qilinadi, lekin ba‘zan *“Vashingtondagi Oq uy”* deb ham ta‘kidlanadi, chunki har qanday oq rangli uyni nazarda tutmaslik uchun aniqlik kiritiladi.

Ushbu bobning uchinchi fasli *“Ingliz va o‘zbek tillarida mamlakatshunoslikka oid terminlarning ekvivalentlik masalalari”*ga bag‘ishlanadi. Ba‘zi terminlar uchun ingliz tilida aniq va ustuvor ekvivalentlar mavjud. Masalan, *“mamlakatshunoslik”* – *country study*, *“siyosiy tizim”* – *political system* kabi terminlar ko‘p hollarda ma‘noda to‘liq mos keladi.

Ayrim terminlarda inglizcha ekvivalentlar qisman yaqin, lekin ularning kontekstual qo‘llanilishi va tushunchalari bir-biridan farq qiladi. Misol uchun, *“davlat boshqaruvi”* termini ingliz tilida *“state administration”* yoki *“governance”* sifatida ifodalanadi, ammo ularning qo‘llanilishida madaniy, huquqiy va tizimiy tafovutlar kuzatilishi mumkin. Ba‘zi terminlar faqat bir madaniyatga xos bo‘lib,


boshqa tillarda ekvivalenti yo‘q. Masalan, “Thanksgiving” (Shukronalik kuni) bayrami AQShga xos bo‘lib, o‘zbek tilida to‘liq ekvivalenti yo‘q. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentlik – bir tildagi termin boshqa tildagi terminga aynan mos kelishi mumkin degan fikr ko‘pincha mamlakatshunoslikda muammo hisoblanadi. *National Interest* (milliy manfaat) – ba‘zi hollarda, ushbu termin kontekstga qarab turlicha ifodalanishi mumkin, ammo asosiy lug‘atlarda ko‘p hollarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentlikni saqlaydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentlik tushunchasi terminning tarjimada semantik va madaniy jihatdan mos kelishini anglatadi.

Tadqiqotimizning so‘ngi fasli “*Ingliz va o‘zbek tillaridagi mamlakatshunoslikka oid terminlarni standartlashtirish va unifikatsiya qilish*” deb nomlanib unda terminlarning umumiyashtirish hamda xususiyashtirish masalalari, leksik va semantik bir xillikni ta‘minlash, chog‘ishtirilayotgan tillardagi lingvokulturologik xususiyatlar tahlilga tortilgan. Terminologik ishlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri sohadagi barcha terminlarni to‘plash va tavsiflash, ya‘ni standartlashtirish hisoblanadi. “Unifikatsiya” tushunchasi lotincha *unus* – bir, yagona va *facio* – qilmoq, yasamoq so‘zlaridan kelib chiqqan. Ingliz tili lug‘atlarida mamlakatshunoslik terminlarini standartlashtirish va unifikatsiyalash tahlilida terminologik tahlil usullari, lug‘at turlarining qamrovi va ularning foiz taqsimoti, shuningdek, standartlashtirish jarayoniga ta‘sir qiluvchi asosiy omillar ko‘rib chiqiladi. Masalan, “*River*” (daryo) termini: Turli daryolarning nomlarida bu terminning ishlatilishi turlicha bo‘lishi mumkin (masalan, “*River Thames*”, “*Mississippi River*”). Standartlashtirish jarayonida bu terminning ishlatilish o‘rinlari va shakllari aniqlanadi. “*Mountain*” (tog‘) termini: Tog‘ tizmalari va alohida tog‘larning nomlarida bu termin ham turlicha ishlatilishi mumkin (masalan, “*Rocky Mountains*”, “*Mount Everest*”).

O‘zbek tilidagi misollar: *Viloyat, tuman, shahar va qishloq* – ushbu terminlar uchun rasmiy ta‘riflar va chegaralar belgilangan. *Viloyatlar va tumanlar* uchun maxsus normativ hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, ularning nomlanishi, hududiy chegaralari va ma‘lumoti yagona standartlarga asoslanadi. Ingliz tilidagi mamlakatshunoslik doirasida qo‘llaniladigan terminlarning leksik va ma‘naviy mosligini ta‘minlash g‘oyat muhimdir. Bu, ayniqsa, tarjima, ta‘lim va ilmiy faoliyat sohalarida dolzarb hisoblanadi, chunki noto‘g‘ri yoki o‘rinsiz terminlar tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Misol uchun *Constitutional monarchy*. Konstitutsiyaviy monarxiya, qirol boshchiligidagi, ammo qonunlar bilan cheklangan tizim.

Lingvokulturologik omillar – bu til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, o‘ziga xos madaniy, tarixiy va ijtimoiy tajriba asosida terminlarning shakllanishi va ma‘nosini belgilovchi jarayonlardir. Ingliz tilidagi mamlakatshunoslik terminlari yaratilishida nafaqat lingvistik xususiyatlar, balki o‘sha jamiyatning tarixiy voqealari, qadriyatlari va madaniy an‘analari ham muhim rol o‘ynaydi. Ingliz tilida “*Nation-building*” termini, asosan, davlat qurilishi jarayonini ifodalaydi. Ushbu termin xalqaro siyosat va ijtimoiy inshootlar kontekstida qo‘llaniladi. Ingliz tilida bu termin ijtimoiy integratsiya, madaniy birlashuv va tarixiy meros asosida shakllangan davlat identitetini ifodalaydi. O‘zbek tilida lingvokulturologik omillar juda katta ahamiyatga ega. Chunki o‘zbek tili o‘zbek xalqining boy madaniyati va tarixini

o‘zida mujassam etgan.



2-rasm. Ingliz va o‘zbek tillarida tahlilga tortilgan mamlakatshunoslik sohasiga oid umumiy terminlar

XULOSA

Ingliz va o‘zbek tillaridagi mamlakatshunoslik terminlarini tahlil qilish quyidagi xulosalarga olib keladi:

1. Ingliz va o‘zbek tillaridagi mamlakatshunoslik terminlarining tasnifi, soha terminlarining vujudga kelishi, ularning tarixiy shakllanish bosqichlari atroflicha yoritilgan. Natijada mamlakatshunoslik terminlarining ikki tilli terminologik tizimida universal xususiyatga ega bo‘lgan terminlarning saqlanib qolishi yoki yo‘qolishi kabi muammolar aniqlandi.

2. Ingliz va o‘zbek tillarida mamlakatshunoslik terminlarining leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq qilish uchun sohaga oid 20 tomli “The World book Encyclopedia”, Madvaliyev A. tahriri ostida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” A-Z barcha tomlari, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” A-Z barcha tomlari, “Macmillan English Dictionary for advanced learners. – Oxford”, Sh.Butayev muallifligida “English-uzbek, uzbek-english dictionary”, “ “Abbreviatura” O‘zME. A-harfi Birinchi jild”, “English-Russian Dictionary. 24-th Revised Edition”, “Historical dictionaries”, Xudoyberganov R.Y. [va boshq.] “O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati” shuningdek, A. Xojiyevning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” lug‘atlaridan mamlakatshunoslikka oid ingliz tilida 2000 ta termin, o‘zbek tilida 2200 ta termin tanlab olinib tahlilga tortildi. To‘g‘ri tahlilga erishish uchun terminlarning o‘zbekcha, lotincha nomlari bilan solishtirildi.

3. Har qanday tilda bo‘lgani kabi, ingliz va o‘zbek tillaridagi leksika boshqa tillar ta‘sirida yangi so‘zlarni o‘zlashtiradi va natijada faqat tegishli leksik birliklar, so‘z yasovchi vositalar, so‘z yasash usullari paydo bo‘ladi. Ingliz va o‘zbek tillarida terminologik tushunchalarni shakllantirishda morfologik usul yetakchi bo‘lishidan tashqari, semantik usul ham nisbatan mahsuldor hisoblanadi.

4. Chog‘ishtirilayotgan ingliz va o‘zbek tillarida affiksatsiya, semantika, konversiya, kompozitsiya usullari orqali mamlakatshunoslik terminlarining yasalishi struktur-semantik jihatdan o‘rganildi. Ingliz tilida qo‘shma so‘zlar, birikma terminlar

va affiksatsiya usulida yasalgan terminlar terminologiyaning miqdoriy asosini tashkil etishi dalillandi.

5. Chog'ishtirilayotgan tillardagi mamlakatshunoslikka oid terminlarda gipero-giponimiya munosabatlari turlicha ekani, xususan, ingliz tilida gipero-giponimiya munosabatlari, sohadagi umumiy terminlar ichida 340 ta, o'zbek tilida esa 175 tani tashkil qilishi dalillandi.

6. Ingliz tilidagi mamlakatshunoslikka oid terminlari o'z qatlami *Eski ingliz va german ildizli* so'zlardan, o'zbek tilida *tub o'zbek va turkiy ildizli* so'zlar ekanligi, o'zlashgan qatlam esa ingliz tilida asosan *lotin, fransuz, yunon va arab* tillaridan, o'zbek tilida *arabcha, forsha, ruscha va inglizcha* so'zlardan o'zlashgani aniqlandi.

7. Statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, aksariyat terminlar morfologik va sintaktik usullar bilan hosil qilinadi. Bu usullar yangi tushunchalarni nafaqat aniq shakllantirishga, balki ularni tizimli va tushunarli tarzda shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, abbreviatura va kalkalash natijasida hosil bo'lgan terminlar ham o'zining ixchamligi, tez ifodalanishi va global munosabatlarda o'z o'rniga ega bo'lib, til va fan sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu turli usullar terminologiyaning boy va murakkab tarkibiy xususiyatlarini aks ettiradi, shuningdek, til va bilim sohasidagi o'zgarishlarga moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

8. Ingliz va o'zbek tillaridagi semantik munosabatlarning o'xshash va farqli jihatlari sinonimik, antonimik, gipo-giponimik hodisalar asosida ko'rib chiqildi. Har ikkala tilda ham mamlakatshunoslik terminlari o'rtasidagi giponimik munosabatlar faol hisoblanadi. Xususan, mamlakatshunoslik terminlari orasida gipo-giperonimik munosabatlar keng tarqalganligi aniqlandi.

9. Lingvokulturologik omillar mamlakatshunoslik terminlarini tarjima qilish va tushunishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, har bir til o'ziga xos madaniyat, tarix va dunyoqarashni aks ettiradi, bu esa terminlarning ma'nosiga ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatshunoslikka oid ayrim tushuncha va hodisalar har bir jamiyatda o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi va bu ularning terminologiyasida ham o'z aksini topishi isbotlandi.

10. Ushbu dolzarb mavzu yuzasidan Mustaqillik davri o'zbek tilida shakllangan yangi mamlakatshunoslik terminlari bilan ingliz tilidagi muqobillarini solishtirish, shuningdek ikki tilli lug'at tuzish hamda Ingliz tilidagi mamlakatshunoslik terminlarining o'zbek tilida adekvat tarjimasini bilan shug'ullanish kabi ilmiy mavzularda izlanishlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

**SCIENTIFIC COUNCIL №PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01
AWARDING SCIENTIFIC DEGREES AT
NAMANGAN STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES NAMED
AFTER IS'KHOQKHON IBRAT**

TERMEZ STATE UNIVERSITY

TAIROVA MAXFUZA ABDUSATTOROVNA

**CONTRASTIVE STUDY OF COUNTRY STUDY TERMS IN ENGLISH AND
UZBEK**

**10.00.06— Comparative study of Literature, Contrastive Linguistics and
Translation studies**

**DISSERTATION ABSTRACT FOR THE DOCTOR OF PHILOSOPHY
DEGREE (PhD) IN PHILOLOGICAL SCIENCES**

Namangan – 2025

INTRODUCTION (Annotation of the doctor of philosophy (PhD) dissertation)

In global linguistics, since the middle of the 20th century, interest and necessity have grown toward studying terminological units, which constitute a significant part of human linguistic wealth, express concepts related to specific fields, and serve as a basis for mutual communication among specialists in those fields. In particular, in the modern world, when borders are becoming increasingly transparent, knowledge of other cultures and traditions is becoming the key to successful interaction. Research in the field of national studies helps students and professionals better understand the specifics of different countries, which is important for working in international organizations, business and other areas.

In world linguistics, there is an increasing need to study terminological systems. Given the rapid development of science and technology and the overwhelming flow of information that is capable of profoundly transforming humanity today, the activation of country studies terminology is observed. By revealing the lexical and semantic features of country studies terms in English and Uzbek, it is possible to identify their similarities and differences. This, in turn, requires systematization and organization of the lexemes related to comparative studies of country studies terms in both languages.

In recent years, large-scale reforms have been carried out in all fields, including comparative linguistics, in our country. Moreover, the statement by the President of the Republic of Uzbekistan that “We are making serious efforts to significantly raise the value of science in our society, and to expand opportunities and conditions for scientists and researchers” clearly reflects the emphasis on advancing linguistics. Therefore, terminological, linguistic, encyclopedic, and electronic dictionaries – particularly the selection and explanation of terms – and the necessity of a special comparative study of the lexical-semantic features of country studies terminology in Uzbek linguistics highlights the relevance of this research.

The creation of sufficient conditions for learning foreign languages and promoting foreign language learning among the younger generation in Uzbekistan has laid the groundwork for a series of scientific studies in this field. As emphasized by President Shavkat Mirziyoyev: “...We must never slacken our work in the field of education and spirituality; instead, we must elevate them to a new level.”¹ Moreover, it is necessary to investigate and further deepen linguistic research based on comparative analysis with world languages, while simultaneously revealing and highlighting the still-unknown aspects and specific characteristics of the national language through its diverse means of expression.

This dissertation is carried out in accordance with the tasks set forth in several presidential decrees, including: The Decree PF-6084 dated October 20, 2020, “On Measures for Further Development of the Uzbek Language and Improvement of Language Policy”; The Decree PF-6108 dated November 6, 2020, “On Measures to Develop Education, Upbringing, and Science in the New Stage of Development of

¹ Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B.17.

Uzbekistan”; The Decree PF-101 dated January 28, 2022, “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026”; The Resolution PQ-5117 dated May 19, 2021, “On Measures to Bring the Activity of Learning Foreign Languages to a New Level in the Republic of Uzbekistan”; The Cabinet of Ministers’ Resolution No. 34 dated January 19, 2022, “On Additional Measures to Improve the System of Foreign Language Learning”.

The research thus serves, to a certain extent, the fulfillment of tasks outlined in the aforementioned normative-legal documents.

Consistency of the Research with the Priority Areas of Scientific and Technological Development in the Republic. This dissertation aligns with the first priority area of the scientific and technological development of the Republic: “The formation and implementation of a system of innovative ideas for the social, legal, economic, cultural, spiritual, and educational development of an information society and a democratic state”.

The Degree of Study of the Problem.

In foreign linguistics, extensive research has been conducted by E. Wüster, J. Ayto, Sh. Lewis, W. Fleischer, S. Ziya, É. Benveniste, F. de Saussure, L.I. Bojno, Ye. Yefremov, E.N. Sapozhnikova, V.P. Danilenko, D.S. Lotte, Sh. Shelov, B. Golovin, G. Aleksandrova, S. Grinev, M. Teresa Cabré, V. Leychik, T. Kandelaki², and others.

In Uzbek linguistics, numerous studies have been conducted on terminological issues. Among the scholars who have contributed to this field are: M.A. Usmanov, Q. Musayev, U. Tursunov, H. Dadaboyev, R. Doniyorov, A. Madvaliyev, Kh. Paluanova, O. Akhmedov, D. Kadirbekova, Kh. Mirzaahmedova, T. Valiyev, F. Qodirova, D. Muminova, A. Khojiyev, A. Madvaliyev, Z. Mirahmedova, B. Kh. Omonov and N. Atayeva³. Despite the large number of studies conducted in the field of terminology,

² E. Würster. Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie (the general introduction to terminology and terminological lexicography lesson). 3rd Edition, Romanistischer Verlag, Bonn, 1991. – 300 s.; Ayto J. A Century of New Words. Oxford: Oxford University Press, 2007. – 250 p.; Sherman L. Princeton. – N. J.: Princeton University Press, 1938. – 524 p.; Fleischer W., Barz I. Wortbildung der deutschen Gegenwartssprache. – Berlin/Boston: De Gruyter, 2012. – S. 373.; Sak Ziya, Dictionary of Commercial and Economic Terms Ticari ve Ekonomik Terimler Sözlüğü, 1996. – 416 p.; Benveniste É. *Problemas de lingüística general*, México: Siglo Veintiuno, 1971; new ed., 2 vols., México: Siglo XXI, 1977.; Соссюр Ф. де Заметки по общей лингвистике: Пер. с фр./Общ. ред., вступ ст. и коммент. Н.А. Слюсаревой. – М.: Издательская группа «Прогресс», 2001. – 280 с.; Божно Л.И. Научно-техническая терминология как один из объектов изучения закономерностей развития языка // Филологические науки. 1971. № 5. – С. 103.; Ефремов Е. Основы теории лексического калькирования. – Алматы: КазГУ, 1974. – 275 с.; Сапожникова Е.Н. Страноведение: Теория и методика туристского изучения стран: Учеб. Пос. для студ. высш. учеб. заведений /- 2-е изд., испр. — М.: Издательский центр «Академия», 2004. — 240 с.; Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. -М.: Наука, 1977. — 157 с.; Лотте Д.С. Очередные задачи технической терминологии (1931) / Д.С. Лотте // Татаринов В.А. История отечественного терминоведения. Классики терминоведения: Очерк и хрестоматия. — М., 1994. – 408 с.; Шелов С. Термин. Терминологичность. Терминологические определения. Монография. – Санкт-Петербург: Российская государственная библиотека, 2003. – 277 с.; Головин Б. Лингвистические учения о терминах. М.: Высшая школа, 1987. 105 с.; Гринев С. Терминоведение. –М.: Академия, 2008. – 303 с.; Cabré M. Teresa Terminology “Theory, methods and applications” John Benjamins Publishing Company Amsterdam/Philadelphia 1999. p.2, 12, 103, 331.; Лейчик В. Терминоведение: предмет, методы, структура. – М.: ЛКИ, 2007. – 256 с.; Канделаки Т. Семантика и мотивированность терминов. – М.: Наука, 1977. – 167 с.

³ Усманов М.А. Термин «ярлык» и вопросы классификации официальных актов ханств Джучева Улуса//Актовое источниковедение. М. 1979. С. 243 — 244.; Мусаев К.М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. – М.: Наука, 1986. — 163 с.; Турсунов У. Ўзбек тилшунослиги

there are still unexplored problems related to the comparative study and lexical-semantic properties of terms in the field of national studies. National studies terms require scientific study based on linguistic principles and finding their own solutions today.

Relevance of the Research to the Scientific and Educational Priorities of the University. This research was carried out within the framework of the scientific project titled “Pressing Issues in the Comparative-Typological Study of the Lexical-Semantic System of Language: Diachrony and Synchrony” (Research Code: ITA-12-09-2012), conducted at the Termez State University Department of English Language and Literature.

Purpose of the Research is to reveal and compare the etymological-derivational and lexical-semantic features of country study terms in English and Uzbek.

Research Objectives.

